

## MILLIY URF-ODATLARINING BADIY TALQINI

*Saibnazarova Makhliyo*

*UTAS, teacher of the Languages department of the English language,  
Republic of Uzbekistan*

### Annotatsiya

O'zbekiston madaniyati Sharqning eng yorqin va o'ziga xos madaniyatidan biridir. Bu beqiyos xalq ijodiyoti, raqsi va rassonchilik, betakror milliy oshxona va kiyim kechagidir. O'zbek xalq ijodiyotining san'ati ko'pqirrali tematika va xilma xil janri bilan tafsiflaydi. O'z vazifalari va shakllariga muvofiq ashula va cholg'u asbob kuylari ikki guruhdan iborat: belgilangan vaqt va vaziyatlarda ijro etuvchi va har qanday vaqtda ijro etuvchi. Birinchi guruhga urf-odat, mehnat jarayoni, turli marosimlar, sahnalashtirilgan tomosha namoyishlar va o'yinlarga tegishli bo'lgan ashulalar kiradi. .

**Kalit so'zlar:** Madaniyat, urf-odat, ijod, marosimlar, nomoyish.

## ARTISTIC EXPRESSION OF UZBEK NATIONAL TRADITIONS

### Annotation

The culture of Uzbekistan is one of the brightest and most unique in the East. It is a unique folk art, dance and painting, a unique national cuisine and costume. The art of Uzbek folk art is characterized by a wide range of themes and different genres. According to their functions and forms, singing and instrumental melodies are divided into two groups: performing at set times and situations, and performing at any time. The first group includes songs related to customs, the labor process, various ceremonies, staged performances, and games.

**Key words:** Unique, folk, perform, custom, tradition, ceremonies

O'zbek xalqi o'z musiqasi bilan mashhurdir. qo'shiq – she'riy matnning bir yoki ikki baytni qamrab oluvchi katta bo'lmagan kuy bilan tuzilgan kuplet ashulasidir. Shu jumladan, qo'shiq turlari bilan bir qatorda kupletli tuzilgan ashulalar bo'lgan "lapar" hamda "yalla" sana'ti mavjud. Maskur kuyning raqsga tushuvchi sana'tining janri xazil raqsni ijro etishda ko'zda tutilgan. Lapar – bu ashula so'zlashuvidir. Xorazmda ashulalarni yakka tartibga ijro etuvchi ijrochilar deb ataladi. Ayrim tumanlarda "lapar" atamasi to'y bazmlarda "Ulan" qo'shig'i (ayollar va erkaklar so'zlashuvi sifatida ijro etiladi) qo'llaniladi. "Yalla" janri ikki turli ashulalardan iborat: qisqa diapazonli kuyi, qo'shiq esa – raqs bilan bir vaqtda yakka tartibda ijro etish. Urf-odatlarining ko'pchiligi oilaviy hayotga oid bo'lib, bolaning tug'ilishi va tarbiyasi

(beshik to'yi, xatna qilish), nikoh (fotiha to'yi, to'y) bilan bog'liq bo'ladi. Ko'pincha ular islom urf-odatlarining sehrarlik amaliyoti bilan bog'liq bo'lgan undan ham qadimiyroq shakllarga uzviy kirib ketishini namoyon etadi. Islom qabul qilinganidan beri ko'pgina oilaviy-maishiy urf-odatlar uning ta'sirida o'zgargan, o'zbeklarning hayotiga musulmon diiy marosimlari kirib kelgan. Juma kuni bayram kuni hisoblanadi va shu kuni barcha yig'iladigan masjidida umumiy namoz (duo) o'qiladi. Patriarxal urf-odatlar masjid, choyxonalar, bozorda o'tadigan hamda faqat erkaklar ishtirok etadigan ijtimoiy hayotda hozirgacha ham yashamoqda.

Beshik to'yi – chaqaloqni birinchi marta beshikka solish bilan bog'liq bo'lib, nishonlanadigan marosimli bayramdir. Bu eng qakdimgi va O'zbekistrona eng keng tarqalgan marosimlardan biri. Odatda bu to'y chaqaloq tug'ilishining 7-, 9-, 11- kuni o'tkaziladi. Turli viloyatlarda marosim o'zicha xususiyatlarga ega bo'ladi va oilaning boyligi darajasiga bog'liq bo'ladi: o'ziga to'q oilalar odatda bu to'yni katta ko'lamda o'tkazadi, kambag'al oilalar esa uni kamtarona nishonlaydilar. Beshik va chaqaloq uchun barcha zarur andomlar chaqaloq onasining qarindoshlari tomonidan beriladi. Dasturxonaga non, shirinliklar va o'yinchoqlar o'rab beriladi. Chaqaloqning ota-onasiga, uning bobo-buvilariga sovg'alar tayyorlanadi. Boy bezatilgan beshik, dasturxonlar va sovg'alar transport vositasiga qo'yilib, mehmonlar bilan birgalikda, karnay-surnay va nog'ora sadolari ostida chaqaloqning ota-onasi uyiga jo'natiladi. An'anaga ko'ra olib kelingan beshikni avval chaqaloqning bobosi o'ng yelkasiga qo'yadi, keyin o'g'lining o'g' yelkasiga uzatadi, u esa beshikni chaqaloqning onasiga beradi. O'tmishda mehmonlarning barcha niyatlari toza va yaxshi bo'lishi uchun ular yuziga oq un surar edilar. Mehmonlar mehmonxonaga yasatilgan dasturxonaga taklif etiladi va mehmonlar ovqatlanib, sozandalarni tinglab, bazm qilib o'tirgan paytda qo'shni xonada kampirlarning ishtirokida bolani yo'rgaklash va beshikka solish marosimi o'tkaziladi. Marosim oxirida mehmonlar bolani ko'rish uchun oldiga kiradilar, unga sovg'alarni beradi va beshikning ustiga parvarda yoki qand sepadilar. Shu bilan marosim tugab, mehmonlar uy-uylariga qaytadilar.

#### Fotiha to'yi

Nikoh ota-onalarning ruxsati va duosi bilan, bir necha bosqich qilib o'tkaziladi. O'g'il voyaga yetganda ota-onasi unga mos keladigan qizni izlay boshlaydilar. Bu jara yonga yaqin qarindoshlari, qo'shnilari, oshnalari ham kirishadi. Qizni topgandan keyin yigitning xolalari yoki ammalari qizning uyiga uni ko'rish, ota-onalari bilan va ehtimoliy kelinning uydagi ahvoli bilan tanishish uchun biror bahona bilan kiradilar. Shundan so'ng qo'shnilari va tanishlari tanlangan qizning oilasi haqida surishtiradi. Ijobiy javob olingan holda uyga sovchilar yuboriladi. Sovchilikning asosiy marosimlaridan biri fotiha to'yidir. Sovchilar fotiha qilinadigan kunni belgilaydilar. Shu kuni qizning uyida atrofdagi taniqli oqsoqolar, mahalla oqsoqoli, qizlar yig'iladi. Sovchilar o'zining kelish maqsadini bayon etganlaridan keyin «non sindirish»

marosimi boshlanadi. Shu paytdan boshlab yoshlar bir-biri bilan bog'langan, fотиha qilingan deb hisoblanadi. Fotiha to'yi nikoh tuziladigan va to'y o'tkaziladigan kunni tayinlash bilan tugaydi. Sovchilardan har biriga ichita ikkita non, shirinliklar bo'lgan dasturxon beriladi, shuningdek qiz tomonidan yigitga va unning ota-onalariga sovg'alar berib yuboriladi. Sovchilar kuyovning uyiga qaytganidan keyin ularning qo'lidan sovg'alar qo'yilgan patnislarni olib, «sarpо ko'rar» marosimini boshlaydilar. Dasturxon odatda ko'p bolali ona tomonidan ochiladi. Barcha yig'ilganlar kelining uyidan keltirilgan pishiriqlar, shirinliklardan bahramand bo'ladilar. Fotiha to'yidan boshlab va to'yning o'zigacha yoshlarning ota-onalari qalin, sep masalalarini va to'y tantanasi bilan bog'liq tashkiliy masalalarni hal etadilar. To'ydan bir necha kun avval qiznikida «qiz oshi» marosimi o'tkaziladi, unga qiz o'zining yaqinlari va o'rtoqlarini taklif etadi.

Har bir millat va elat borki o'zidagi an'ana va urf-odatlarini manguilashtirishni yani kelajak avlodga yetkazishni istaydilar vas hu yo'sinda urlaning an'ana va urf-odatlarini millat ruhiga singib borishi uchun o'z adabiyotlarida ham aks etiradilar. Yozuvchilar va shoirlar o'z asarlarni yaratishda albatda an'ana va urf-odatlarga suyanadilar.

#### Used literature

- [1] Day, Malcolm. Voices from the World of Jane Austen. David & Charles, 2006.
- [2] Erickson, Carolly. Our Tempestuous Day: A History of Regency England. NY: William Morrow, 1986.
- [3] Girouard, Mark. Life in the English Country House: A Social and Architectural History. New Haven: Yale University Press, 1978.
- [4] Saibnazarova, M. A. (2020). An Expression Of National Customs In The Works Of Jane Austen And Abdullah Qadiri. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS (2767-3278), 1(01), 16-20.
- [5] Dilnoza, M., Maftuna, S., Guzalkhon, K., Makhliyo, S., & Maftuna, K. (2019). Modular Training System as a Factor of Improving Educational Process. International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering, 9(1), 3160-3166.
- [6] Umarova, M., Rasulmuhamedova, D., Kuchkarova, M., & Saibnazarova, M. (2020). The role of jadid representatives in world literature. Journal of Critical reviews, 7(17), 2190-2192.
- [7] Саибназарова, М. (2021). Выражение национальных традиций в культуре Востока и Запада. Общество и инновации, 2(3/S), 180-185.
- [8] Мухитдинова, Ф. А., Хайитов, Ш. Р., & Саибназаров, М. А. (2020). ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОЕ ВОСПИТАНИЕ МОЛОДЕЖИ ПРИ ПОДГОТОВКЕ ЮРИДИЧЕСКИХ КАДРОВ В СИСТЕМЕ СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. ВВК 87, 797.
- [9] Saibnazarova, M. A. (2019). Female National Type in the English Literature of the XIX Century. International Journal on Integrated Education, 2(5), 200-204.
- [10] Dilnoza, M., Maftuna, S., Guzalkhon, K., Makhliyo, S., & Maftuna, K. (2019). Modular Training System as a Factor of Improving Educational Process. International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering, 9(1), 3160-3166.